

ADABIY ASARLARDA IQTISODIY QARASHLARNING AKS ETILISHI

Mo‘minov Shukurullo Izzatullo o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Menejment” fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Muxlisa Sadriddinovna Muhitdinova

“O‘zbek va rus tillari” kafedrasi dotsenti v.v.b

Annotatsiya: Mazkur maqolada adabiy asarlarda iqtisodiy qarashlarning ifodalanishi tahlil etilgan. Unda adabiyot inson hayotining ajralmas qismi sifatida iqtisodiy muammolar, ijtimoiy tabaqalanish, boyluk va kambag‘allik, mehnat va moliyaviy tengsizlik masalalarini qanday aks ettirishi haqida fikr yuritiladi. Qadimgi yunon adabiyotidan tortib, o‘zbek adabiyoti namoyandalarining asarlarigacha iqtisodiy fikrlar qanday shakllangani va ularning zamonaviy adabiyotda qanday davom etayotgani yoritiladi. Shuningdek, adabiyotning iqtisodiy tafakkurni shakllantirishdagi roli haqida ham tahliliy mulohazalar berilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, iqtisodiy fikr, ijtimoiy tabaqalanish, boyluk va kambag‘allik, mehnat qadri, o‘zbek adabiyoti, sovet adabiyoti, zamonaviy muammolar, globalizatsiya, migratsiya, iqtisodiy tafakkur.

Аннотация: В статье анализируется выражение экономических взглядов в литературных произведениях. В ней обсуждается, как литература отражает экономические проблемы, социальное расслоение, богатство и бедность, неравенство труда и власти, которые являются неотъемлемой частью человеческой жизни. От древнегреческой литературы до произведений узбекских литературных деятелей будет исследовано, как она формировалась экономически и как она продолжается в современной литературе. Приводятся также аналитические соображения о роли экономики в экономической мысли и литературе.

Ключевые слова: литература, экономическая мысль, социальное расслоение, богатство и бедность, ценность труда, узбекская литература, советская литература, современные проблемы, глобализация, миграция, экономическая мысль.

Adabiy asarlarda iqtisodiy qarashlarning aks etilishi. Shavkat Mirziyoyev o‘z ma‘ruzalarida: “Adabiyot – xalq yuragi, xalq ma‘naviyati, bugungi og‘ir zamonda adabiyotning ta‘sirchan kuchidan foydalanib, xalq qalbiga yo‘l topish,

ularni ezgu maqsadlar sari ilhomlantirishimiz kerak, ajdodlarimiz merosini o‘rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun barcha shart-sharoitni yaratamiz” [1]. Adabiyot insoniyat tafakkurining eng muhim va qadimiy mahsullaridan biri bo‘lib, u faqat estetik go‘zallikni emas, balki ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy hayotning ham muhim jihatlarini o‘zida aks ettiradi. Insoniyat taraqqiyotining har bir bosqichida iqtisodiy munosabatlar, mehnat, boylik, kambag‘allik, tabaqalanish, moliyaviy tengsizlik kabi masalalar jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib kelgan. Ana shu holatlarni yozuvchilar va shoirlar o‘z asarlarida turlicha ifoda etib, iqtisodiy hayotga nisbatan bo‘lgan qarashlarini badiiy obrazlar orqali yetkazganlar. Adabiy asar – bu faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki u orqali o‘sha davr odamlarining yashash tarzi, iqtisodiy sharoiti, mulkiy holati, kasblari, tirikchilik uchun olib boradigan kurashi ham aks etadi. Yozuvchi jamiyatda kuzatilgan iqtisodiy muammolarni ko‘rsatish orqali o‘quvchini o‘ylantirish, tafakkurini boyitish, uni chuqur mulohazaga chorlashga intiladi. Ayniqsa, iqtisodiy adolatsizlik, kambag‘allar va boylar o‘rtasidagi tafovut, mehnatning qadrsizlanishi, yer egaligi muammolari, savdogarlikning o‘rni kabi masalalar badiiy adabiyotda tez-tez ko‘tariladigan muhim mavzulardandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan boshlangan dadil qadamlar jamiyatimiz va davlatimiz taraqqiyotining yangi yo‘nalishini, o‘ziga xos paradigmasini belgilab berdi. Mamlakat taraqqiyotiga ko‘p yillar davomida xos bo‘lgan turg‘unlik, muammo va nizolarni yashirish siyosatiga chek qo‘yildi. (2). Masalan, qadimgi yunon adabiyotining yorqin namunalari – Gomerning “Iliada” va “Odissey” dostonlarida savdo-sotiq, boylik to‘plash, yer va mulkka egalik qilish kabi iqtisodiy masalalar bilan bog‘liq voqealar bayon qilinadi. Ulardagi qahramonlar ko‘pincha boylik yoki erkinlik uchun kurashadilar, bu esa o‘sha davr iqtisodiy qadriyatlarining adabiyotga qanday singganini ko‘rsatadi. O‘zbek adabiyotiga nazar tashlasak, unda ham iqtisodiy qarashlar aniq va yorqin ifoda etilgan. Masalan, Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida XIX-asr oxiri va XX-asr boshlaridagi ijtimoiy-iqtisodiy holat, yer egaligi, savdogarlik, kambag‘allik muammolari batafsil yoritiladi. Asarda o‘z mulkidan ayrilgan yoki boylikni qo‘lga kiritishga intilgan qahramonlar orqali iqtisodiy hayotdagi nohaqliklar ko‘rsatiladi. Sovet davri o‘zbek adabiyotida Hamid Olimjon, G‘afur G‘ulom, Oybek kabi yozuvchilar ishchi-sinf hayoti, mehnatga munosabat, kollektiv xo‘jaliklar, ishlab chiqarishdagi mehnat unumdorligi va iqtisodiy tengsizlik

masalalariga katta e'tibor qaratgan. Ushbu davr adabiyoti orqali jamiyatdagi iqtisodiy siyosatning o'zgarishlari, yangi ijtimoiy qatlamlarning shakllanishi, mehnat va moliyaviy erkinlik borasidagi qarashlar badiiy ifoda topgan. Zamonaviy adabiyotda esa iqtisodiy muammolar yanada kengroq ko'lamda ko'tarilmoqda. Globalizatsiya, migratsiya, ishsizlik, korrupsiya, yoshlarning iqtisodiy mustaqillikka erishishdagi muammolari, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi sinovlar kabi dolzarb masalalar yozuvchilar e'tibor markaziga aylanmoqda. Endi adiblar nafaqat mahalliy, balki global iqtisodiy muhit ta'sirida shakllanayotgan jamiyatdagi holatlarni tasvirlaydilar. Umuman olganda, adabiy asarlar iqtisodiy fikrni shakllantirishda, uni keng ommaga yetkazishda muhim vositadir. Ular orqali o'quvchi nafaqat voqeani, balki voqelikni chuqur anglaydi, undagi iqtisodiy muammolarni tushunadi va ularga nisbatan munosabatini shakllantiradi. Adabiyot, shu tarzda, nafaqat madaniy, balki iqtisodiy ongni ham rivojlantiruvchi qudratli kuchga aylanishi mumkin.

Iqtisodiy fikrning tarixiy ildizlari adabiyotda. Adabiyot insoniyat tafakkurining shakllanishida muhim rol o'ynagan bo'lsa, iqtisodiy fikrning dastlabki shakllari ham aynan badiiy asarlarda o'z aksini topgan. Qadim zamonlardan oq adabiy asarlar orqali insonlar moddiy boylik, mehnat, savdo-sotiq, yer egaligi kabi iqtisodiy tushunchalarni ifoda etganlar. Bu esa iqtisodiy tafakkurning tarixiy ildizlarini tushunishda adabiyotning qanchalik muhim manba ekanligini ko'rsatadi. Jahon adabiyotida qadimiy yunon adibi Gomerining “Iliada” va “Odisseya” dostonlari bu borada muhim ahamiyatga ega. Ushbu epik asarlarda qadimgi yunonlarning iqtisodiy faoliyati – savdo, chorvachilik, yerga egalik qilish, boylikni meros qilib qoldirish, hatto urushlarning iqtisodiy sabablari haqida muhim tafsilotlar mavjud. Masalan, "Iliada"da Troyaga qarshi urushning sabablaridan biri qadimiy dunyoda boylik va hududlar ustidan nazoratni qo'lga kiritish istagi bilan bog'liq. Bu o'z navbatida iqtisodiy manfaatlar insonlararo va davlatlararo munosabatlarni shakllantirishda qanday rol o'ynaganini ko'rsatadi.

“Odisseya”da esa bosh qahramon Odissening uzoq yillik sayohatlari davomida duch kelgan jamiyatlarda iqtisodiy hayot, mulkchilik shakllari, mehnat taqsimoti va savdo-sotiq tizimi kabi masalalar ochiq va yashirin tarzda yoritilgan. Bu asar orqali qadimgi Yunoniston jamiyatining iqtisodiy strukturasi ham tasavvur qilish mumkin. Antik davrda yashagan boshqa mualliflar – masalan, Aristofan komediyalarida iqtisodiy sarkazm va ijtimoiy tanqid orqali turli kasblarning ahvoli, soliqlar, pul muomalasi kabi mavzular yoritilgan. Rim adabiyotida esa Horatsiy,

Plavt, Seneka singari yozuvchilar asarlarida boylik va kambagʻallik, hashamat va tejamkorlik, mehnat va dangasalik orasidagi qarama-qarshiliklar badiiy tarzda ifodalangan. Shuningdek, Sharq adabiyotida, xususan, Alisher Navoiyning asarlarida ham iqtisodiy gʻoyalar ilgari surilgan. U mehnatga hurmat, adolatli mulkchilik, savdo axloqi, sodiqlik va halollik kabi iqtisodiy-axloqiy qadriyatlarni ilgari surgan. Masalan, “Mahbub ul-qulub” asarida hunarmandlar, dehqonlar, savdogarlar haqida alohida boblar ajratilib, ularning jamiyatdagi iqtisodiy va axloqiy oʻrni haqida fikr yuritiladi.

Oʻzbek adabiyotida iqtisodiy qarashlar. Oʻzbek adabiyotida iqtisodiy qarashlar, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yoritish muhim oʻrin egallaydi. Bu asarlar orqali oʻquvchi nafaqat tarixiy voqealar bilan, balki oʻsha davrning iqtisodiy sharoiti, odamlarning turmush tarzi, mulkiy holati, kasb-hunarlar va moddiy qiyinchiliklari bilan ham tanishadi. Xususan, XX asr boshlarida oʻzbek adabiyotining asoschilaridan biri boʻlgan Abdulla Qodiriy oʻzining mashhur “Oʻtgan kunlar” romanida XIX-asr oxiri va XX-asr boshlaridagi Turkiston hayotini chuqur tahlil qiladi. Asarda boy-badavlat kishilar bilan kambagʻallar oʻrtasidagi tafovut, yer egaligi uchun kurash, savdogarlik orqali jamiyatdagi ijtimoiy mavqeni belgilovchi omillar atroflicha yoritiladi. Roman qahramonlarining iqtisodiy holati, mulkga egalik qilish imkoniyatlari va bu imkoniyatlarning inson taqdiriga taʼsiri oʻquvchida chuqur taassurot qoldiradi. Masalan, Yusufbek hoji kabi savdogarlarning jamiyatdagi mavqei, ularga nisbatan ijtimoiy munosabat, kambagʻal oilalarning hayotdagi kurashlari, boylikni qoʻlga kiritish yoʻlidagi harakatlar orqali Qodiriy oʻz davrining iqtisodiy tafakkurini badiiy vositalar bilan tasvirlaydi. Bu orqali u ijtimoiy adolatsizlik, iqtisodiy tengsizlik va mulkiy tabaqalanish kabi muammolarni oʻquvchining ongiga singdiradi. Shuningdek, oʻzbek adabiyotining boshqa yirik namoyandalari – Oybek, Gʻafur Gʻulom, Hamid Olimjon kabi adiblarning asarlarida ham iqtisodiy mavzular oʻz aksini topgan. Ular koʻproq sovet davri ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini, kollektiv xoʻjaliklarning tashkil topishi, ishlab chiqarishning rivojlanishi va oddiy ishchilarning hayotini tasvirlaydi. Bu asarlar orqali oʻquvchi nafaqat maʼnaviy, balki iqtisodiy bilimga ham ega boʻladi. Hamid Olimjon, Gʻafur Gʻulom, Oybek kabi ijodkorlar ham oʻz asarlarida ishchi-sinf hayoti, mehnatning qadri va iqtisodiy tengsizlik haqida chuqur fikr yuritadilar. Ayniqsa, sovet davri adabiyotida kollektiv xoʻjalik, ishlab chiqarish va mehnat unumdorligi masalalari dolzarb mavzulardan boʻlgan.



Zamonaviy adabiyotda iqtisodiy muammolar. Zamonaviy adabiyot bugungi kunning dolzarb muammolarini o‘zida mujassam etar ekan, iqtisodiy masalalarga alohida e‘tibor qaratadi. Bugungi yozuvchilar o‘z asarlarida inson va jamiyat o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning murakkabligiga, shuningdek, bozor iqtisodiyoti, globalizatsiya, migratsiya, ishsizlik, korrupsiya, kambag‘allik, moliyaviy xavfsizlik kabi zamonaviy muammolarga keng o‘rin bermoqda. Globalizatsiya natijasida dunyo mamlakatlari o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar kuchaygani sari, adabiyotda ham milliy iqtisodiy masalalar bilan birga global muammolar tasvirlanmoqda. Ayniqsa, iqtisodiy tengsizlik, transmilliy kompaniyalar ta’siri, mehnat muhojirligi, immigratsiya oqibatida yuzaga kelayotgan ijtimoiy muvozanatsizliklar ko‘plab badiiy asarlarning markaziy mavzusiga aylangan. Masalan, ko‘plab zamonaviy yozuvchilar – jumladan, jahon adabiyotida Arundhati Roy, Chimamanda Ngozi Adichie, Khaled Hosseini kabi ijodkorlar o‘z asarlarida iqtisodiy va ijtimoiy notenglikni, odamlarning iqtisodiy tizimdagi o‘rni va hayotiy imkoniyatlaridagi farqlarni chuqur yoritib berishadi. Ularning qahramonlari ko‘pincha ish topolmaslik, moliyaviy qiyinchiliklar, korrupsiyaga qarshi kurash yoki xorijda yaxshi hayot umidida yurtini tark etish holatlarini boshdan kechiradi. O‘zbek zamonaviy adabiyotida ham bu yo‘nalish asta-sekin rivojlanib bormoqda. Yosh yozuvchilar roman, hikoya va esse janrlarida global iqtisodiy jarayonlarning shaxs hayotiga ta’siri, xorijda ishlayotgan mehnat muhojirlari hayoti, qishloq xo‘jaligidagi iqtisodiy islohotlarning odamlar hayotiga ta’siri kabi mavzularni yoritishga harakat qilmoqdalar. Bu esa adabiyot orqali iqtisodiy tafakkurga yangicha nigohni taqdim etadi. Shuningdek, zamonaviy adabiyot texnologik taraqqiyot va raqamli iqtisodiyotga oid mavzularni ham qamrab olmoqda. Masalan, sun‘iy intellektning mehnat bozoriga ta’siri, onlayn ishlash imkoniyatlari, moliyaviy texnologiyalar (fintech) va ularning oddiy odam hayotiga ta’siri badiiy tarzda tasvirlanmoqda.

Xulosa: Adabiy asarlar orqali iqtisodiy fikrlarning aks etishi bu sohaning muhimligini yana bir bor ta’kidlaydi. Ijodkorlar iqtisodiy voqelikni tasvirlash orqali o‘quvchini tafakkurga chorlaydi, iqtisodiy savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, adabiyot faqat estetik zavq emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy bilim manbai hamdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш.М. Вместе мы построим свободную и процветающую, демократическую страну Узбекистан. Выступление на совместном заседании палат Олий Мажлиса, посвященном церемонии вступления в должность Президента Республики Узбекистан. Т., 2016. 56 с.
2. Мирзиёев Ш. М. Мы построим свободную и процветающую, демократическую страну Узбекистан. НМИУ Узбекистана, 2016. – С. 14.
3. Камалова М. МухитдиноваМ. Бюллетень науки и практики / Bulletin of Science and Practice <https://www.bulletennauki.com> Т. 5. №4. 2019 DOI: 10.33619/2414-2948/4
4. Navoiy, A. (1991). Mahbub ul-qulub. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Gomer. (2007). Iliada va Odisseya (Qadimgi yunon eposi tarjimalari). Toshkent: Yozuvchi nashriyoti.
6. Ruziev, B., & Tursunov, B. (2018). Iqtisodiy nazariya asoslari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
7. Muqimiy ijodiga bir nazar. PEDAGOGS” international research journal. №3.
8. Karimov, I. (1997). Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma’naviyat nashriyoti.

Research Science and Innovation House